

AVESTO ILOHIYOTI TIZIMINING MIFOLOGIK ASOSLARI (2-QISM)

B.M. Norjigitov

Guliston Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: Watandosh@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zardushtiylik dini ilohlar panteonining o'ziga xos murakkab tizim, zardushtiylikka bo'lgan davrda Markaziy Osiyo xalqlari ilohiy qarashlari haqida ma'lumot va tahlillar berilgan.

Kalit so'zlari: Avesto, mifologiya, mazdaizm, antropomorf, xaoma, rigveda, zaratushtra, behdin, politeizm, zurvanizm, atar, garo dmano, xurshed, astar, manyava, menyok.

Ahura Mazdaning ezgulik asosining g'alabasi uning osmondagi navkarlari, ya'ni xudolar va boshqa e'zozlanadigan osmon ahlisiz amalga oshishi mumkin emas edi. Bular Ahura Mazdaning olti emanatsiyasi bo'lib, ular Amesha Spenta (mangu yashovchilar) deb ataladi. Mitra – "bitim xudosi" u xudoga berilgan va'dalarning bajarilishi, ya'ni Mazdayasna dinida bo'lish qaroridan qaytmaslik ustidan qat'iy nazorat olib boradi. U keng yaylovlar, ezgu dunyoning cheksiz yerlari xnanirat egasi bo'lib, unda dinning ravnaq topishini ta'minlaydi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bu dunyoning boshi bo'lgani kabi oxiri ham muqarrar, ya'ni borliq vaqt va zamon o'lchamida cheksiz emas. Hayot esa yaxshilik va yomonlik, rost va yolg'on, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi doimiy kurashdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Yorug'lik, yaxshilik va ezgulik kuchlarini Ahura Mazda, qora zulmat kuchlarini esa buzg'unchi ruh Axriman boshqaradi. Axriman qo'shinlariga devlar, oldingi xudolar, hasad, yalqovlik, yolg'onchilik kabi jonlantirilgan yomon tushunchalar, yovuz kuchlar jodugarlar kirgan bo'lib, ular olovga, yerga, suvga, chorvaga ziyon yetkazishga harakat qilganlar. Axriman o'limni, qishni, sovuqni, jazirama issiqni, zararli hayvonlarni va hasharotlarni yaratgan. Ahura Mazda esa yaxshilik, sog'liq va baxt keltiruvchi iloh hisoblangan. Zardusht "Biz Ahura Mazdani ulug'laymiz, u chorvani, suvni, o'simliklarni va yorug'likni yaratgan" – deb atadi¹.

Xudolar (va diniy kultlar) tizimida yetakchi o'rinni Atar "muqaddas olov" egallaydi. Avestada olov bir necha turda: osmon olovi, yog'och olovi, odam olovi va h.k. Bular Ahura Mazdaning osmondagi Quyosh gardishidagi timsolidir.

¹ A.Ashirov. "Avesto"dan meros marosimlar. – T.: Meros., 2001. – B. 4.

Zardushtiylikda olo‘v bilan birga suv(ap), yer(zam), shamol(vata), osmon(asman), Quyosh(xurshed), yulduz(astar) va hakoza ham e‘zozlanadi. Shuningdek jonivorlar sog‘lig‘ini asraydigan xudolar (daholar), Drauaspa, Geushurvan (“buqa joni”) – Vaxuman (ezgu fikr) epiteti va hakoza mavjud. Xudolar va e‘zozlanadigan jonzoatlarning turli tumanligi zardushtiylikning teologik qarashlari tizimi murakkabligini anglatadi. Biroq shunga qaramay, butun panteonning yakka yaratuvchisi g‘oyasi butun holda saqlanib qolad. Chunki zardushtiychi ularni Ahura Mazdaning irodasi bilan va unga sig‘inishni qulay qilish maqsadida yaratilgan vazifalar deb qabul qiladi. Masalan, Ahura Mazda zardushtga deydi: “Men Mitrani shunday qilib yaratdimki, u o‘zimga o‘xshab hamdu-sanolarga arziydi. Sening Mitra sharafiga aytgan duo va hamdu-sanolaring ayni vaqtda mening sharafimga aytilgan”. (Mitra Yasht) zardushtiylikning teologik tizimida xratu xudosi(ong), oxshiti(olam), dayna(dinning o‘zi) tushunchalari mustaqil kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Osmonda yashovchilar, xudolarning alohida sinfi sifatida fravashi – farishtalar ko‘rsatiladi. Ular asrlardan-asrlarga qadar yashab, o‘z eltuvchilarini kutadilar. Masalan, odam paydo bo‘lishi bilan fravashi uning tanasiga joylashib, unga hayotning oxirigacha xizmat qiladi. Fazoda bo‘shliq yo‘q, hamma yer fravashilar bilan to‘la. Inson o‘limidan keyin fravashi osmonga uchib ketib, u yerda mangu qoladi¹.

Zardushtiylik vaqt va fazoning cheksizligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lgan. Fazo ikki qismga bo‘linadi:

Cheksiz yorug‘lik – ezgulik, unda Ahura Mazda mangu yashaydi.

Cheksiz qorong‘ulik, bunda barcha yovuzlik asoslarni draugadan tortib zararli hasharotlarga yaratgan Axriman mangu yashaydi. Ahura Mazda o‘zining cheksiz vaqtini (zravana-akavana) yashaydi. Biroq uning irodasi bilan cheksiz vaqtning oxirgi qismi zrvan xvadata belgilangan, uning uzunligi 12 ming yil. Bu vaqt har birining uzunligi 3 ming yildan to‘rt qismga bo‘linadi. Birinchi uch ming yillik, bu – Ahura Mazdaning ezgu dunyoni (forscha-menyok, tojikcha- minu) nomoddiy ko‘rinishda (manyava - “tasavvurdagi ideal dunyo”) yaratgan davri. Shu davrda bo‘lajak jonli va jonsiz moddiy buyumlar – fravashilarning ruhlari yaratilgan. Birinchi uch ming yillik oxirida yorug‘lik va ibodatni yomon ko‘ruvchi Axriman yorug‘lik va zulmat chegarasida paydo bo‘ladi. Hasad va g‘azabdan u yomonlik qila boshlaydi. Uch ming yillik shu tariqa davom etadi. Ahura Mazda butun ezgu dunyoni o‘z tanasidan yaratgan: boshidan osmonni, oyog‘idan yerni, ko‘z yoshlaridan suvni, sochlaridan o‘simliklarni, ruhidan esa olovni yaratgan. Demak, zardushtiylik dinida dunyo yaralishini shundan tasavvur qilinadi.

¹ Sulaymonova F.Sharq va G‘arb. – T.: Fan, 1991. – B. 19.

Zardushtiylik ta'limotiga binoan, tanadan chiqqan jon "judo etuvchi ko'prik" oldiga keladi. Ahdga sadoqat ma'budi Mitra va uning hamrohlari tarozi ushlab turuvchi Sraosha va Rashnu har bir jonning yaxshi va yomon qilmishlari, so'zlari va fikrlarini tarozuning ikki pallasiga soladilar. Hukmni Mitra chiqaradi, yaxshilik og'ir kelsa ruh "jannat"ga, yomonlik og'ir kelsa "do'zax"ga tushadi (zardushtiylikda abadiy muzlik va sovuq). Agar barobar kelsa aralash joy – misvon-gatuga ketadi. Bu yerda na hafalik, na xursandchilik bor, jon noxush kun kechiradi. Jannatga ruhni go'zal qiz - daena olib ketsa, do'zaxga boruvchilar oldida ko'prik qilich tig'idan o'tkir va qildan ingichkalashadi, yalmog'iz kampir gunohkor jonini jahannamga olib ketadi. Ming yillardan so'ng hamma qayta tiriladi va so'ngi sud bo'ladi. Ya'ni to'g'dan oqib tushgan olovsimon erigan ma'dan daryosidan ruhlar birin-ketin o'tadilar, o'shanda yaxshilar beziyon qutuladilar, hamma gunoxkorlar, yomonlik va yovuzlik xudosi Axriman halok bo'ladilar. Dunyoda abadiy baxtli hayot boshlanadi¹.

Zardushtiylik bo'yicha yer dumaloq, osmon uch pog'onali: yulduzli, oyli va quyoshli; Quyosh sferasidan keyin "shon-shuxrat uyi – garo dmano" – Ahura Mazdaning makoni joylashgan, taqvodorlar ruhi aynan shu yerga intilishi kerak. Pastda esa Axrimanning qorong'u makoni – daujaxvo – do'zax joylashgan².

Zardushtiylik kitoblarida Ahura Mazda Zardusht fravashisini borliq ibtidosida yaratib, uni Hayot daraxti Xaoma tanasiga joylagani, olti ming yil o'tgach esa, umumkoint miqyosida yaxshilik va yomonlik orasidagi kurash asnosida Zardusht inson siymosida gavdalanib, haqiqatning ilohiy nuri bilan nurafshon etilgani yozilgan. O'rta asrlargacha bir afsona saqlanib kelgan: muqaddas sarv daraxti Ahura Mazda so'zi naqshlanib, Zardusht samodan sarv niholini keltirgan ekan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bu dunyoning boshi bo'lgani kabi oxiri ham muqarrar, ya'ni borliq vaqt va zamon o'lchamida cheksiz emas. Hayot esa yaxshilik va yomonlik, rost va yolg'on, yorug'lik va zulmat o'rtasidagi doimiy va kelishib bo'lmaydigan kurashlardan iborat. Yorug'lik, yaxshilik va ezgulik kuchlarini Ahura Mazda, qora zulmat kuchlarini esa buzg'unchi ruh Axriman boshqaradi. Axriman qo'shinlariga devlar, oldingi xudolar, hasad, yalqovlik, yolg'onchilik kabi jonlantirilgan yomon tushunchalar, yovuz kuchlar jodugarlar kirgan bo'lib, ular olovga, yerga, suvga, chorvaga ziyon yetkazishga harakat qilganlar. Axriman o'limni, qishni, sovuqni, jazirama issiqni, zararli hayvonlarni va hasharotlarni yaratgan. Ahura Mazda esa yaxshilik, sog'liq va baxt keltiruvchi iloh hisoblangan. Zardusht "Biz Ahura Mazdani ulug'laymiz, u chorvani, suvni, o'simliklarni va yorug'likni yaratgan" – deb

¹ Sulaymonova F.Sharq va G'arb. – T.: Fan, 1991. – B. 21

² Markaziy Osiyo dinlari tarixi, Yovqochev SH, Is'hoqov M va boshqalar. – T.: TDSHI, 2006. – B. 44.

atadi. Ahura Mazda hayotni va yer yuzidagi dastlabki odam – Yiymani yartuvchi iloh sifatida talqin qilinadi.

Zardushtiylik dastlab mazdaparastlik nomi bilan atalib, qadim Turon va Eron xalqlarining dini, ular uchun ilohiyot beshigi hisobangan. Lekin bu ta'limotni to'liq falsafiy qarashlar majmuyi deb qarash noto'g'ri bo'lur edi. Shunga qaramay, huddi boshqa dinlar kabi Zardushtiylikda ham ba'zi metafizik, ibtidoiy falsafiy qarashlar mavjud. Jumladan, Avestada kosmogonik tasavvurlar bir turkumni tashkil etadi. Masalan, osmon "Ahura Mazdaning ustidagi libosining etagi"¹, kurrai zaminning yumaloqligi, borliqning "old" va "orqa" tomoni – janub va shimol timsollari. Bu tushunchalarning axloqiy-falsafiy asosda ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat tushunchalariga bog'liqligining ko'zda tutilishi – bularning barchasi diniy tizim yuzaga kelgunga qadar asotiriy tafakkur mevasi ekanligi muhim va e'tiborga loyiq holatlardir. Avestani tushunishda ayni shu mifologik qatlamning diniy tizimi doirasiga olib kirilishi muhim tarixiy yechim bo'lgan deyish mumkin².

"Denkard" va boshqa pahlaviy tilidagi kitoblarda Zardushtning ismi "Magupta" shaklida zikr etilgan. Bu yodgorliklar arab tiliga tarjima qilinganda Zardusht nomi "Majus" va "Majusa" tarzida yozilgan. Natijada, uning nomi arab tilidagi ilmiy adabiyotlarda "Majus", u targ'ib qilgan din esa "majusiy"lik deb atalgan. Shuning uchun arab tarixchilarining asarlarida mazdaparastlik dini majusiylik ya'ni otashpastlar dini sifatida keltiriladi. Bundan tashqari zardushtiylar olovni muqaddas hisoblaydilar hamda ibodatxonalarida doimo olov yonib turishi lozim hisoblangan. Barcha ibodatlarini shu olov atrofida ado etadilar. Ammo ko'pchilik avestashunoslar zardushtiylikni "otashparastlik" dini debatalishi noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydilar.

Tadqiqotchi olim A.Ashirov quyidagicha yozadi: "Otash", "Quyosh", "Nur", "Ro'shnolik" zardushtiylik dinining ramziy timsollari bo'lsada, lekin zardushtiylar hech qachon Quyosh, olovga sig'ingan emas. Faqat Quyosh, yorug'likka qarab ibodat qilishgan, sayl va to'ylarida o'rtada gulhan yoqib, atrofida o'ynashgan, marhumlar ruhini sham yoqib xursand qilganlar. "Avestada" ikki o'rinda otash va Quyosh Ahura Mazdaning farzandlaridir deyiladi, ammo unda "Otashparast" degan so'z uchramaydi va har sahifada "Eh, Ahura Mazda! Biz seni madh etamiz, va biz mazdaparastmiz!" – degan xitob takrorlanadi³.

G.T.Madmudovaning fikricha, zardushtiylik politeietik e'tiqodlardan monoteizmga o'tish davriga xos bo'lgan din bo'lib, politeistik xudolar panteonida ham u dunyoni, ham bu dunyoni yaratuvchi yagona ilohning oldinga chiqishini ifodalaydi,

¹ Avesta. Yasht kitobi // M.Is'hoqov tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – B. 128.

² Zardushtiylik xrestomatiyasi. Mahmudova G., Is'hoqov M. va boshqalar. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2017. – B. 12.

³ A.Ashirov. "Avesto"dan meros marosimlar. – T.: Meros., 2001. – B. 4-5.

shu bilan birga, totemizm, animizm, shamanizm va sehrgarlik kabi dinning ibtidoiy shakllarini o'zida mujassamlashtiradi¹.

Ba'zi olimlarning xulosalariga ko'ra, aslida, zardushtiylik Qadimgi Markaziy Osiyo va Eronda tafakkur rivojlanishining bir necha yunalishlaridan biri bo'lgan va keng tarqalmagan. Zardushtiylikning afzalligi va uni keng o'rganilishining sababi unga tegishli bo'lgan qadimgi matnlarning (Avesta) saqlanib qolganligidadir. Boshqa yo'nalishlarga ko'ra, arxeologik ma'lumotlarning rekonstruktsiyasi va keyingi davrlarda yozilgan matnlarni talqin qilish asosidagina chuqur o'rganilishi mumkin, ya'ni ularni tadqiq qilish murakkabroq.

O'lkamizda yo'zaga kelgan zardushtiylik ham ana shu yo'sinda hukmron dinga aylanadi. Biroq Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan so'ng yana qurama diniy muhit o'rnashadi.

Xuddi shu davrda egizak oliy xudolarga sig'inish ham tardalgan bo'lib, u Zardusht ta'limoti asoslaridan biri bulib xizmat qilgan bulishi mumkin, chunki Zardusht ikki egizak ruhlar haqida tinglovchilarga batafsil sharh berib o'tirmasdan, yaxshi ma'lum bo'lgan narsa haqida gapirganday so'zlaydi.

Egizak ruhlar haqidagi qadimiy afsona K.Levi-Stross fikriga ko'ra, dual urug'lar asosida tashkil topgan jamiyatlar dunyoqarashni hamda ularning dualistik kosmogoniyasini aks etadi. Bunday jamiyatda har bir egizak alohida fraksiyaning asoschisi hisoblanadi. Zardusht ta'limotida bu afsona yangicha talqin qilinadi².

Avestashunoslik Avesta mifologiyasini bir qancha qatlamlarga ajratib ko'rsatadi: a) dunyo va uning kelib chiqishi masalasi bilan bog'liq mifologik tasavvurlar; b) insonning shakllanishi bilan bog'liq tasavvurlar; c) ilohiyot – iloh va ma'budlar tizimi haqidagi mifologik tasavvurlar; d) qabohat, razolat, yovuzlik keltiruvchi kuchlar haqidagi mifologik tasavvurlar; e) dunyoning payoni, unda inson tani va ruhining taqdiri bilan bog'liq esxatologik tasavvurlar³.

Shunday qilib, zardushtiylikni har tomonlama o'rganish juda keng qamrovli yondashuvni, turli fanlar (tarix, dinshunoslik, arxeologiya, etnografiya, falsafa va b.)ning bu yo'nalishdagi tadqiqotlari yutuqlaridan foydalanishni talab etadi. Chunki zardushtiylikning monoteistik din bo'lib shakllanishida mazkur hududda tarqalgan turli-tuman ibtidoiy va rivojlangan diniy topinishlar, sig'inishlar, e'tiqodlar, qarashlar, shuningdek, tarixiy-siyosiy, tarixiy-madaniy jarayonlar va omillar o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. "Zardushtiylik qadimgi mafkuraning qoldig'i (relikt) bo'lib, bu din uning muxlislari tomonidan mazdayasna ("daena mazda-yasna" - Mazdani ulug'lovchilar

¹ Mahmudova G. Avestaning falsafiy mohiyati. – T.: Noshir, 2015. – B. 15.

² Mahmudova G., Arifxanova S. Zardushtiylik falsafasi – T.: Noshir, 2014. – B. 17.

³ Ishmuratov M. "Avesto"da mifologik qatlam (tabiat kultlari asosida). Tarix fanlari nomzodi...dissertatsiyasi. 2002. – B 12.

dini) - mazdaparastlik deb nomlangan va tarixiy jarayon davomida u o'z mazmuni, mafkuraviy yo'nalishi va ijtimoiy asosini bir necha marta o'zgartirgan"¹.

Shu bilan birga, har bir davrning o'ziga xos xalq e'tiqodi mavjudligi va ana shu e'tiqod namoyon bo'lgan ilohlari va ramzlari aynan shu davr uchun xosligi ham isbot talab etmaydi. E'tiqod ramzlari o'zgarib borganini ibodatxonalar devorlariga ustama-ust tushirilgan tasvirlardan bilish mumkin. Darhaqiqat, xalq san'ati namunalari zamonlar qa'ridan vaqt uzra qatlam-qatlam namoyon bo'lishi olimlar tomonidan qayd etilgan hodisa bo'lgani kabi, e'tiqod bilan bog'liq marosimlar va ibodat joylari ham shu jarayonni boshdan kechiradi"².

Avestani o'rganishda uning diniy-mifologik va falsafiy tomonlarini farqlash zarur. Avesta zardushtiylik dini rivojlanish jarayonining barcha bosqichlarini o'zida aks ettiradi. Unda, aniqrog'i, Yashtlarda ibtidoiy diniy topinishlar: totemizm, animizm, fetishizm va sehrgarlik alomatlari, shuningdek, qadimgi xalqlarning ko'pxudolilik (politeizm) bilan bog'liq e'tiqodlari va Xot (yasna)larda Zardusht tomonidan kashf etilgan yakkaxudolik (monoteizm) ta'limoti o'z ifodasini topgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zardushtiylik ta'limoti shakllanishidagi uzoq tarixiy jarayon, hamda yerli xalqlarning avvalgi ko'pxudolikka asoslangan e'tiqodlari uning din sifatida shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun, odamlar Zardusht da'vat etgan Mazdayasna bilan birga o'zlarining avvalgi ilohlarini ham ulug'laganlar.

Avesta ilohiyoti va demonologiyasi diniy tasavvurlarning ibtidoiy bosqichlari bilan bog'liqdir. Insonga bo'ysunmas tabiat hodisalari asta-sekin odamlar ongida ma'lum barqaror timsollarga aylangan.

Avesta kitobi mifologik qatlamlari ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi qarama-qarshilikning albatta ezgulik g'alabasi bilan tugashi kabi optimistik ruh bilan sug'orilgan. Ayni mana shu hol nafaqat zardushtiylik diniy tizimi, balki mifologik qatlamlar orqali ramziy umumlashmalarga aylangan axloqiy-falsafiy dunyoni ham qarama-qarshi qutbga, ya'ni yaxshilik va yomonlik timsollariga ajratgan. Zardushtiylik ta'limotining asosini insonni qurshab turgan olam – ikki ibtido – yaratuvchi va buzg'unchi ruhlarning kurash maydoni ekanligi yotadi. Demak har qanday yomolik jazosiz qolmasligi, oxir oqibat ezgulik dunyodagi barcha yovuz kuchlarni mahv etishi zardushtiykdagi bosh g'oyalardandir.

¹ Karmatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: JIDU, 2008. – B. 14.

² Karmatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: JIDU, 2008. – B. 15.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karamatov H. O‘zbekistonda moziy e‘tiqodlar tarixi. – T.: JIDU, 2008.
2. Karimova D. Ilk zardushtiylik e‘tiqodining shakllanishida Jarqo‘ton ibodatxonasining tutgan o‘rni//Imom Buxoriy saboqlari. № 3, 2017.
3. Mahmudova G. Avestaning falsafiy mohiyati. – T.: Noshir, 2015.
4. Safarboyev M. Avesta olamning vujudga kelishi va tuzilishi haqida.//Avesta va uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni. Toshkent-Urganch, 2001. Fan.
5. Ishmuratov M. “Avesto”da mifologik qatlam (tabiat kultlari asosida). Tarix fanlari nomzodi...dissertatsiyasi. 2002
6. Zardushtiylik xrestomatiyasi. Mahmudova G, Is‘hoqov M. va boshqalar. – T.: Mumtoz so‘z, 2017.6.
7. Avesta: Izbranniye gimni: Iz Videvdata/ Per. s avest. I.M. Steblin Kamenskogo. M., 1993.
8. Doroshenko E. A. Zaroastriytsi v Irane. – M: Nauka, 1982.
9. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – M.: Izd. MGU., 1948